

## X. ISTE'MOL BOZORI

2020 yilning yanvar–martida chakana savdo tovar aylanmasi 1844,4 mlrd.so‘mni yoki 2019 yilning shu davriga nisbatan 101,3 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 18,1 % ga kamayib, 339,3 mlrd.so‘mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 18,4 % ni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 8,5 % ga o‘tib, 1229,0 mlrd. so‘mga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 66,6 % ni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 276,1 mlrd. so‘mi uyushmagan savdo (dehqon va chorva bozorlari) hisobiga to‘g‘ri keldi va o‘shish sur‘ati 2019 yilning shu davriga nisbatan 1,0 % ga ko‘paydi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 15,0% ga teng bo‘ldi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (2020 yilning yanvar–mart holatiga)




2020 yilning yanvar–martida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo‘yicha quyidagicha ifodalanadi.

Davlat mulki 0,4 mlrd.so‘mni, nodavlat mulki 1844,0 mlrd.so‘mni tashkil qildi.

*Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Urganch shahri 36,0%, Xazorasp tumani 10,0 % hisobiga to‘g‘ri keldi, Shuningdek: Xiva tumani 1,9%, Yangibozor tumani 2,8%, Xiva shahri 3,1% eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.*

## Xududlarning jamchakana tovar aylanmasidagi ulushi

% hisobida



2020 yilning yanvar-mart oylarida yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'ati 18,4 % ni tashkil etdi. O'z navbatida, Yangiariq tumanida (2019 yilning shu davriga nisbatan 184,3 % ga), Xiva shahri (182,7 % ga), Xazorasp tumani (127,6 % ga) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 21,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 88,1 % ni tashkil qildi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,1 % ni tashkil etdi. Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Urganch shahri 42,4%, Urganch tumani 21,4 % hisobiga to'g'ri keldi. SHuningdek, YAngiariq tumani 1,5 % va Qo'shko'pir tumani 1,9 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi**  
(umumiy ovqatlanishni qo‘shgan holda)

	Jami		Aholi jon boshiga	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2019 yil yanvar-martiga nisbatan % da</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2019 yil yanvar-martiga nisbatan % da</i>
<b>Viloyatbo‘yichajami:</b>	<b>1844,4</b>	<b>101,3</b>	<b>986,7</b>	<b>99,7</b>
Urganch shahar	664,7	91,3	4616,3	90,0
Xiva shahar	56,3	107,3	609,5	105,6
<i>tumanlar:</i>				
Bog‘ot	108,4	102,2	660,7	100,4
Gurlan	158,3	134,9	1070,1	132,9
Qo‘shko‘pir	75,4	102,4	438,8	100,5
Urganch	156,8	107,6	792,5	105,6
Xazorasp	184,1	104,9	741,8	103,1
Xonqa	124,9	100,8	672,0	99,3
Xiva	35,2	102,7	242,8	101,0
Shovot	139,0	106,0	820,0	104,1
Yangiariq	89,5	109,4	773,9	107,7
Yangibozor	51,8	103,3	594,7	101,7

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda) aholi jon boshiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 99,7 % ni bo‘lib, 986,7 ming so‘mni tashkil etdi (2019 yil yanvar-mart oylarida 873,4 ming so‘m). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlarini Urganch shahri (4616,3 ming so‘m), Gurlan tumanida (1070,1 ming so‘m) va Shovot tumanida (820,0 ming so‘m), eng past ko‘rsatkichlarni esa Xiva tumanida (242,8 ming so‘m), Qo‘shko‘pir tumanida (438,8 ming so‘m) qayd etdi.

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning (uyushmagan savdo ko‘shilgan) ulushi, %**



2020 yilning yanvar–martida ulgurji savdo tovar aylanmasi 380,6 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 71,1 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 37,7 % ni tashkil qilib, ulardagi hajm 90,7 mlrd. so‘m bo‘ldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 98,4 % ni tashkil qilib, 289,9 mlrd. so‘m bo‘ldi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 76,2 % ni tashkil qildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	<i>Jami</i>	<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>	<i>Yirik korxonalar</i>	<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>	<i>Kichik korxonalar</i>	<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>380,6</b>	<b>71,1</b>	<b>90,7</b>	<b>37,7</b>	<b>289,9</b>	<b>98,4</b>
Urganch shahar	149,3	102,7	37,5	114,6	111,8	99,3
Xiva shahar	18,0	98,5	0,2	0,0	17,8	97,5
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	6,7	99,0	0,003	0,0	6,7	97,5
Gurlan	8,1	101,7	0,04	9,7 m.	8,1	99,0
Qo'shko'pir	1,2	97,1	0,01	101,6	1,2	101,2
Urganch	122,8	43,9	51,7	24,9	71,1	97,1
Xazorasp	8,1	97,7	0,01	26,3	8,1	98,4
Xonqa	23,1	101,7	1,2	113,7 m.	21,9	98,1
Xiva	9,2	97,8	0,04	0,0	9,2	96,8
Shovot	10,4	96,5	0,004	0,0	10,3	97,7
Yangiariq	7,6	98,5	0,005	74,3	7,6	97,3
Yangibozor	16,1	95,9	0,009	0,0	16,1	98,5